

Sayyora SHODMONOVA,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD dotsent.
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
E-mail: sayshodmonova71@gmail.com
Tel: (99) 136-48-31

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori Z.Teshboyeva taqrizi asosida

PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF ENGLISH TRANSLATIONS OF UNITS OF MEASUREMENT LEXEMAS IN "BOBURNOMA"

Annotation

This article is devoted to the pragmatic features of units of measurement in the text "Boburnoma". Special attention is paid to the transliteration of the translation of units of measurement, as well as to the linguocultural and pragmatic features of the translations. The problems of reflecting the lexemes of units of measurement in the text "Boburnoma" in translations and the issues of restoring their linguistic and cultural characteristics in their translations are analyzed.

Key words: Units of measurement, noble, royal, diamond, dinar, linguistic and cultural features, authenticity, mathematical numbers,

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНГЛИЙСКИХ ПЕРЕВОДОВ ЛЕКСЕМ ЕДИНИЦ ИЗМЕРЕНИЯ В "БОБУРНОМЕ"

Аннотация

Данная статья посвящена прагматическим особенностям единиц измерения в тексте «Бобурнома». Особое внимание уделено транслитерации перевода единиц измерения, а также лингвокультурным и прагматическим особенностям переводов. Анализируются проблемы отражения лексем единиц измерения в тексте «Бобурнома» в переводах и вопросы восстановления их лингвокультурных особенностей в их переводах.

Ключевые слова: Единицы измерения, благородный, королевский, бриллиант, динар, лингвокультурные особенности, своеобразие, математические числа,

"BOBURNOMA" DAGI O'LCHOV BIRLIKLARI LEKSEMALARI INGLIZCHA TARJIMALARINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola "Boburnoma" matnidagi o'lchov birliklarining pragmatik xususiyatlariga bag'ishlanadi. O'lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning lingvokulturologik va pragmatik xususiyatlariga alohida e'tibor berilgan. "Boburnoma" matnidagi o'lchov birliklari leksemalarining tarjimalarda aks etishdagi muammolar va ularning tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'lchov birliklari, ashrafiy, shohruhiy, olmos, dinor, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat, matematik raqamlar

Kirish. Ma'lum bir asar matnida muayyan bir xalq turmush tarzi jarayonida kundalik hayot ehtiyojlari uchun qo'llanadigan o'lchov birliklari leksemalarini boshqa bir xalq o'lchov birliklari so'zlari (leksemalari) bilan almashtirish chog'ida, uni asarning umumiy ohangiga, undagi tarixiy haqiqatga, milliy ruhga nechog'lik mos kelish-kelmasligini jiddiy o'ylab ko'rish muhimdir. O'lchov birligi haqida zarur ma'lumotga ega bo'lmay turib, e'tiborsizlik bilan o'z tilida ifoda etilayotgan, boshqa xalq turmush tarzi uchun mos kelmaydigan o'lchov birligi bilan tarjima qilinishi asarning badiiy-estetik qimmatiga putur yetkazadi, kitobxonda voqelikka nisbatan ikkilanish, ishonchsizlik uyg'otadi.

Qadimda o'lchov birliklari oltin, kumush yoki misdan yasalgan va anglatgan qiymati shunga muvofiq holda bir-biridan farq qilgan, ya'ni tangalarning qiymati tangaga ishlatilgan oltin, kumush yoki mis og'irlik darajasi hamda metallning qadri bilan belgilangan. Demak, tanga qanday predmetdan yasalishidan qa'tiy nazar, o'sha davr uchun pul birligi bo'lgan. "Boburnoma" matnida pul qiymatini ifodalovchi: dinor// dinar, dirham// diram, flus// fulus, donge, tanga, ashrafiy, yarmoq, shohruhiy kumush, oltun, rotiba, vajah, shuningdek, olmos pul birliklari uchraydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Boburnoma" matnida: "Chahorshanba kuni Borik ob tushganda Hindustonda qolg'on Nurbekning inilaridin yigirma ming shohruhiylik oltun va ashrafiy va tangakim, Xoja Husayn devon Laho'r xolisotidin yiborib edi, kelturdi" (BN.184), deb o'qiyamiz.

Leyden-Erskin tarjimasida: On Wednesday, when we were coming to our ground at Barik-ab, the brothers of Nur Beg, who had remained behind in Hindustan, arrived bringing to the amount of twenty thousand shahrokhis, in gold, in ashrafis and tankis, which Khwajeh Hussain, Diwan of Lahore, had sent by them (L-E, Voll.II; 155) tarzida tarjima qilinadi.

Asliyat matnida: "yigirma ming shohruhiylik oltun va ashrafiy va tangakim" pul qiymatini bildiruvchi o'lchov birliklari leksemalari, tarjimada: twenty thousand shahrokhis, in gold, in ashrafis and tankis, shaklida qayta tiklanadi. E'tibor qaratsak, pul birligi leksemalari transliteratsiya usulida berilgan oltin so'zining muqobil varianti borligi uchun tarjima berilgan. Tarjimaga aniqlik kiritish maqsadida, Leyden-Erskin tomonidan pul o'lchov birliklari leksemalari tarjimasining satr ostida keltirgan izohini berishni ma'qul topdik: About £1,000 sterling. Nothing can afford a stronger proof of the scarcity of specie in Kabul than this appropriation of so small a sum. The tanki, or tangi, is a small silver coin of the value of about fivepence. The name of ashrafi is applied to the gold mohur, which is worth about a guinea and a half. It is applied, however, to gold coins of various magnitude and value (Taxminan 1,000 funt sterlingdir. Mayda miqdordagi so'm mablag'iga qaraganda Kobuldagi qiymat turlarining yetishmasligi bunga dalildir. Tanki yoki tangi - kumush tanga bo'lib, qiymati besh pensga teng. Oltin mohur ashrafi nomi bilan ataladi, qimmatiga grafiya va uning yarmiga tengdir. Ammo u har xil kattalikdagi va qiymatdagi oltin tangalarga nisbatan qo'llaniladi (M.T). Bundan ko'rinadiki, tarjimon o'zga tilda ifoda etilgan pul qiymatini shu tilda so'zlashuvchi xalq uchun tushunarli ifodalashga harakat qiladi.

A.Beverij tarjimasida: On Wednesday, when we had dismounted at Barik-ab, the younger brethren of Nur Beg – he himself remaining in Hindustan – brought gold, ashrafis and tankas to the value of 20,000 shahrokhis, sent from the Lahor

revenues by Khwaja Husain (A.B.446) tarzida qayta yaratiladi. Asliyat matnida: “yigirma ming shohruxiylik oltun va ashrafiy va tangakim” pul qiymatini bildiruvchi o’lchov birliklari leksemalari tarjima matnida: gold, ashrafiy and tankas to the value of 20,000 shahrukhis (oltin, ashrafiy va tanga yigirma ming shohruhiy qiymatiga ega) deb keltiriladi. A.Beverij ham pul o’lchov birliklari leksemalarini tarjimalariga izoh keltiradi. Izohda: Discussing the value of coins mentioned by Babur, Erskine says in his History of India (vol. i, Appendix E.) which was published in 1854 AD. that he had come to think his estimates of the value of the coins was set too low in the Memoirs (published 1826 AD.). This sum of 20,000 shahrukhis he put £1,000. Cf. E.Thomas’ Pathan Kings of Dihli and Resources of the Mughal Empire” (Bobur tomonidan tangalar qiymati bildirilgan muhokamasi, 1854 yilda nashr qilingan Erskinning Hindiston tarixi (I-jildining YE apendiksida) esdaliklarda keltirilgan tangalar qiymati juda kam qiymatga egaligi ta’kidlangan, degan fikrga kelgan. 20 ming shohruhiyini 1.000 funt sterlingga teng qo’yadi va E.Tomsning “Dehli podshohi va mo’g’ul imperiyasining resurslari” kitobida (M.T) deb keltiradi.

Har ikkala tarjimonlar tomonidan yozilgan izohlarni keltirib o’tishni joiz deb topdik, chunki bular aynan pul birliklarini asliyatga nisbatan qayta tiklash jarayonida kelib chiqqan ayrim fikr va mulohazalarni ko’rsatib berish uchun xizmat qiladi.

V.Tekston tarjimasida: On Wednesday, at Barikao, one of Nur Beg’s younger brothers brought twenty thousand shahrukhis worth of gold, ashrafiy, and tankas, which Khwaja Husayn the divan had forwarded from the Lahore revenues. Most of it was sent for the benefit of Balkh by Mulla Ahmad, one of the lords of Balkh (W.T.311) deb tarjimada keltiradi.

Pul o’lchov birliklari leksemalarini mutarjim: “twenty thousand shahrukhis worth of gold, ashrafiy, and tankas” shaklida qayta yaratadi. V.Tekston ham tarjimada oltin so’zini ekvivalenti bilan almashtiradi, qolganlarini esa transliteratsiya yo’li bilan amalga oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarjimalarni amalga oshirishda har bir tarjimon o’z nuqtai nazaridan yondashganini ko’ramiz. Uchala tarjimon ham o’quvchisiga tushunarli tarzda bo’lishi uchun tarjimaning turli yo’llariga kirib ko’rgan, pragmatik jihatidan o’quvchiga qulay imkoniyat yaratishga harakat qilgan. Leyden-Erskin ham o’quvchilari uchun tushunarli bo’lishi ilinjida izohlarni aniq keltirishga uringan. Bu ham tarjimonning yuksak mahorat egasi ekanligidan darakdir.

Professor G’aybulla-as-salom ta’biri bilan aytganda: “Mutarjim judayam o’ziga xos layoqat, iqtidor, iste’dod va bilim sohibi bo’lishidan tashqari, uning zakovatida deyarli barcha ijod ahlining faoliyatiga xos: tahlil, tasvir, tiynat yaratish, kayfiyat tug’dirish va hatto maxsus “o’qiy bilish” sifatleri jamuljam” [Саломов 1973, 280]. Darhaqiqat, tarjimon bu sohada muhbir tarjimon bo’lish bilan birga, ijodkor yaratgan asarning mazmun-mohiyatini to’liq tushunishi hamda uning milliy va madaniy xususiyatlarini anglab yetishi lozim. Shundagina, tarjima asarlari xuddi asliyatdagidek o’z mazmun va shaklini saqlab qoladi, shuningdek, o’quvchiga asliyat matnidek o’qib, voqealar tasvirini aniq ko’z o’ngida tasvirlantira olishiga katta imkoniyat yaratiladi.

Dinor//Dinar pul qiymat birligi qadimdan g’arbu sharqda qo’llangan pul birligi bo’lib, u tijorat va iqtisodni yurituvchi asosiy muomala vositasi bo’lgan. Dinor aslida “dinnar” so’zidan olingan bo’lib, birinchi “nun”, “yo” ga almashtirilgan. Ko’plik holatida “nun” o’z joyiga qaytadi. Eronda chop etilgan mashhur “Lug’atnoma”da qayd etilishicha, Rag’ib Isfaxoniyning “Mufradodi alfozi Quron” nomli asarida dinor-forscha ikki mustaqil so’zdan tashkil topganligi ko’rsatib o’tiladi: ya’ni din+ar, u shariat keltirgan narsa (yoki predmet) ma’nosini anglatadi. Damashqda 72 hijriyda zarb etilgan dastlabki dinorlarda islomiy naqshlar bo’lgan. Tangalarni bunday naqshlar bilan bezash islomiy mamlakatlarda XIV asrgacha davom etib kelgan. Hijriy IV-V asrlarda Xurosonda tillo va kumushdan zarb etilgan dinorlarga Kalimai shahodat va Ixlos surasidan oyatlar yozilgan. Abbosiylar esa to 170 hijriygacha (Xorun al Rashid zamonigacha) dinorni naqshsiz zarb etganlar. Xorun al Rashid va undan keyingi hukmronlar o’z nomlarini tanga yuziga zarb ettirganlar.

Keyinchalik Iroq va Quvaytda dinor qog’oz pul ko’rinishida ham muomalada bo’lgan. U 1000 fulusga teng kelgan. Qadimda dinorlar har xil bo’lgan. Dinori Urduniy -1000 fulus, 1 liraga teng; Dinori Ahmadiya – Ahmad ibn Tulun nomi bilan bog’liq bo’lib Misrda zarb etilgan.

Tahlil va natijalar. Dinor qadimda (XII asrda) arablarning pul birligi bo’lib, asosan, oltindan yasalgan. V.M.Berkutovning ma’lumot berishicha, dinor rimliklarning “dinariy” kumush tangasining nomidan olingan va lotincha “o’ntalik” ma’nosini anglatgan. Inson Karmlining “Nuqud ul-arabiya” asarida dinor rumiy tildagi dinoryusdan olingan deyilgan. Bu so’z tarixini fransuzcha dinyaga bog’laydiganlar ham bor. Musulmon olamida esa dinor oltindan yasalgan, deb aytiladi. O’zbek lug’atlarida dinor “oltin aqcha”, “oltin tanga” deb berilgan. “Boburnoma”ning ruscha nashrida bir dinor 7,5 gramm kumushdan iborat deb izohlangan. V asrda 1,25 grammlik, 6 dirhamlik kumushga teng bo’lgan. Dinorning qiymati XV asr oxiri XVI asr boshlarida ruslar puli bilan solishtirilganda, oltin hisobi bilan 50,75 tiyinlik qiymatga ega bo’lgan.

V.Xinsning fikricha, dinor og’irlik o’lchovi sifatida 1 misqolga teng bo’lib, oltin hisobida 4,235 grammni tashkil qilgan. 1 misqol arablarda 4,250 gramm, O’rta Osiyoda esa 4,25 grammga teng bo’lgan. Shuni ham ta’kidlash joizki, misqol O’rta Osiyoning o’zida ham har xil qiymatni anglatgan. A.Juvonmardiyev dinor eski oltin aqcha bo’lib, 6 diramga teng ekanligini qayd etgan. Biz V.Xinsning fikriga qo’shilamiz.

Pul qiymatini ifodalovchi o’lchov birliklaridan yana biri Dirham//Dirham - kumushdan yasalgan bo’lib, uni arablar “dirham” deb nomlashgan. “Lug’atnoma” asarida o’ndan bir (1/10) dinorga tengligi ko’rsatilgan. “Dirham”ning qiymati “dinor”ga qaraganda kichik bo’lgan, chunki “dirham” kumushdan yasalgan. J.Lapasov tuzgan lug’atida dirham 3,12 grammga teng oltin tanga deb bersa, ba’zi tarixiy asarlarda 3,186 grammga teng ekanligi ko’rsatiladi [Липасов 1994, 64].

O’rta asr xalq hayotida keng qo’llanilgan o’lchov birliklari leksemalarini o’sha davr uchun xos bo’lmagan yoki ayni paytdagi xalqaro o’lchov birligi tizimida qabul qilingan termin orqali o’girish to’g’ridan-to’g’ri anaxronizmga olib kelgan bo’lar edi. Mutarjimlar anaxronizmdan saqlangan holda, bu o’lchov birliklari leksemalarini qayta tiklash jarayonida tarjimaning boshqa usulidan foydalanib, qayta tiklash ham bo’ladi. Shuningdek, “tarjimon har bir muayyan holatga ijodiy yondashishi, muallif fikrini to’g’ri aks ettirish uchun qayg’urishi shart” [Файзуллаева 1979, 57].

Xuddi shuningdek, pul va baho o’lchov birligi leksemalarining tarjimasini, mutarjim ro’baro’ keladigan murakkab masalalardan biridir. Chunki baho birliklari har bir xalq tilida nafaqat nomlanishi, balki qimmat jihatidan ham bir-biridan keskin farq qiladi. Hatto muayyan bir xalq hayotida ma’lum bir baho o’lchov birligi turli davrlarda turli qiymatlarga ega bo’lishi ayon. Bu, albatta, o’sha davr hayotining iqtisodiy ahvoli, moddiy shart-sharoitlari bilan bevosita bog’liqdir. Hozirgi kunda kundalik turmush tarzimizda ishlatiladigan baho birliklari hammamizga tanish bo’lishiga qaramay, o’tmishda ota-bobolarimiz tushunchalaridan kelib chiqqan holda nomlangan va belgilangan baho o’lchovlari haqida hamma ham aniq ma’lumotga ega emas, albatta. Bunday baho o’lchov birliklarini endilikda faqat ilmiy yoki tarixiy badiiy asarlarda uchratamiz. Qadimda O’rta Osiyoda pul, paqir, miri, tanga o’lchov birliklari bo’lib, kumush va tilla tangalar alohida farqlangan [Мусаев 1976, 35].

A.Beverij tarjimasida: The agreement is to give one shahruxi for each yoke of oxen and seven for headship in a household; there is also service in the army (A.B.379), tarzida tarjima qilingan. Ushbu tarjimada one shahruxi shaklida Leyden-Erskin bergan transkripsiyadan farqli shaklda beriladi, A.Beverij ham izohda Leyden-Erskin tomonidan izoh keltiriladi, deb aytib o'tadi, yetti shohruxiy tarjimasini seven tarzida ifodalab beriladi. Bu ham har uchala tarjima orasida A.Beverijning o'ziga xos uslubidan darak beradi.

V.Tekston tarjimasida: ... that is, one shahruxi per yoke of oxen and seven shahruxis per household (W.T.286), deb keltiriladi. V.Tekston ham A.Beverij kabi transliteratsiya qiladi, lekin yetti shohruxiyini seven shahruxis kabi qayta tiklaydi.

Yuqorida pul qiymat birliklaridan biri shohruxiyning tarjimasini tahlilga tortdik, tahlil natijasidan ko'ryapimizki, har bir tarjimon o'z uslubi doirasida yondashgan, har uchala tarjimada ham bir xillik ko'zga tashlanmaydi, transliteratsiya asosida tarjima qilgan bo'lsalar-da, turlicha yondashuvni kuzatdik.

Asarda biror buyumning, narsaning qiymatini anglatadigan yoki voqealar rivojiga bog'liq holda muallif bayonida milliy ruhni ifodalab kelgan pul birliklarini tarjimada berishning birdan-bir usuli transliteratsiyadir. Chunki aslyatda qo'llanilgan tarixiy pul birliklari hududiy jihatidan ancha uzoqda joylashgan, tarixan turli rivojlangan, turmushning moddiy va ma'naviy taraqqiyot xususiyatlari jihatidan keskin farq qilgan boshqa bir xalq tilida aynan muqobili yoki o'xshashi bo'lmasligi mumkin. Ammo asardagi davr ruhi, voqealar rivoji o'sha pul birligini talab etadi. Bunda bir xalq pul birligini boshqa bir xalq pul birligi bilan berib bo'lmaydi. Bu hol tarixiy asardagi muayyan xalqlarning tarixiy-milliy pul birliklari tarjimasini uchun ham xosdir.

Aslyatdagi bir shohruxiy va yetti shohruxiy pul birliklarini tarjimonlar transliteratsiya usulida o'girib ketganlar.

Transliteratsiya haqiqatan ham tarjimonlar uchun eng qulay yo'l. Transliteratsiyada shu so'zning ma'nosi o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun matn ostida izohlab boriladi. Lekin izoh haqida gap ketar ekan, shuni aytish kerakki, izohlash imkoniyatini aslo suiiste'mol qilmasdan, undan juda noiloj bo'lgan paytdagina foydalanib qolgan paytda iloji boricha masalani matnning o'zida, hech bo'lmaganda, tasviriy yo'l bilan hal qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki asarni shavq bilan o'qib borayotgan kitobxon izoh talab birlikka to'qnashib, to'xtab qolishi, uning izohi uchun qaydga murojaat qilishi maqsadga muvofiq emas. Bu narsa kitobxoniga ta'sir qilib, asar haqidagi haqqoniy tasavvurining qisman bo'lsa-da, so'nishiga sabab bo'ladi.

Pul faqat tushunchalarnigina emas, balki aniq miqdordagi baho o'lchovini ham anglatgan. Bir pul – qadrsiz, durustroq narsa xarid qilib bo'lmaydigan qora chaqani ifodalagani uchun ham, ko'chma ma'noda mulzam bo'lgan, uyatga qolgan odamga nisbatan obro'si bir pul bo'ldi, degan ibora ishlatilgan. Hozirgi vaqtda ham jonli tilda bu iborani uchratishimiz mumkin. Demak, baho o'lchov birliklari narx-navodagi muayyan qiymatni ifodalashdan tashqari ko'chma ma'noda ham qo'llanishi mumkin ekan. Shu boisdan tarjimon tarjima qilgan asaridagi baho o'lchov birligining qiymatini, qo'llanilgan o'rni, bajarayotgan vazifasini hisobga olgan holda ish ko'rishi muqobillikka erishida muhim omillardan hisoblanadi.

Xulosa. Pul qiymatini ifoda etuvchi o'lchov birliklari ham izoh va sharhlarga berilish orqali adekvat o'g'irilmagan. Garchi tarjimonlar bu o'rinda ingliz tili retseptori ehtiyojini hisobga olgan bo'lsalar-da, bu tadbir oqibatida kelib chiqadigan matn g'alizligini ko'zdan qochirganlar. Natijada pul qiymatini beruvchi o'lcham tarjimalarda to'la ifodalanmay qolgan. Bu jihatlar tarjima amaliyotiga kirishishdan oldin shu xalq tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlaridagi nozikliklarni to'la o'rganishga undaydi.

Ammo Leyden-Erskin, A.Beverij, V.Tekston tarjimalarining shunday ijobiy, pragmatik xususiyatlari ham borki, ularni umumlashtirib nashr ettirish Yevropa inglizxon o'quvchilariga "Boburnoma" va unda aks etgan o'lchov birliklariga oid teran tasvirlar mohiyatini anglash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Otajonov N. "Jahongashta Boburnoma". – T., 1996. - 271 b.
2. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T., 2016. - 132 b.
3. Salye M. Iz uzbekskix klassikov. –Tashkent, 1946. – 178 b.
4. Safarov SH. Pragmalingvistika. –Toshkent, 2008.- 285 b.
5. Xolmanova Z. "Boburnoma" leksikasi. – Toshkent: "Fan", 2007. - 234 b.
6. Babur. Traktat ob aruze / Pod. red. I.Stebleva. – M., 1972.–175 s.
7. Babochkin B.A. Mesyats v Indii. – M.: Iskusstvo, 1959. - 152 s.
8. Bacque - Grammont J.L. Le livre de Babur. – Paris, 1980. - 238 p.
9. Beveridge A.S., The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiri'ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols, – London, 1922; Repr, in one Volume, – London, 1969. – 25 p. — New Delhi, 1970. – 78 p. Lahore, 1975. – 72 p.
10. Blagova G.F. O xarakteristike grammaticheskogo stroya
11. Diane Lee Smith. Claire Martin in English: Theory and Practice of Literary Translation. The Dissertation of PhD. The University of Alberta. Edmonton. – Alberta, 1976. - 312 p.
12. Eiji Mano. Bābur-nāma (Vaḳāyi). Critical Edition Based on Four Chaghatay Texts with Introduction and Notes. – Kyoto, Shōkadō, 1995. - 630 p